

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 657,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 118,2 mln. AQSh dollariga yoki 21,9 % ga ko'paydi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-dekabr, ming AQSh dollari)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	538 991,0	657 184,3	121,9 %	x
Eksport 	362 688,5	418 605,2	115,4 %	100,0
 tovarlar	360 154,2	416 057,1	115,5	99,4
 xizmatlar	2 534,3	2 548,1	100,5	0,6
 oltin	-	-	-	-
Import 	176 302,6	238 579,1	135,3 %	100,0
 tovarlar	168 843,2	226 807,9	134,3	95,1
 xizmatlar	7 459,4	11 771,2	157,8	4,9
 Saldo	186 385,9	180 026,1	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida

TSA da eksport hajmi 418,6 mln. AQSh dollariga (15,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 238,6 mln. AQSh dollariga (35,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 180,0 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)**



Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (23,2 %), Turkiyada (16,4 %), Rossiya Federatsiyasida (18,9 %), Qozog'istonda (9,7 %), Latviyada (5,0 %), Ukraina (2,3 %) va Koreya Respublikasi da (4,7 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (152,7 mln. AQSh dollari), Turkiya (107,6 mln. AQSh dollari), Rossiya (124,3 mln. AQSh dollari) va Qozog'iston (64,0 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	177,5	155,9	152,7
Eksport	110,6	120,3	108,1
Import	66,9	35,6	44,6
Saldo	43,7	84,7	63,5
Turkiya	80,6	71,8	107,6
Eksport	60,5	68,9	93,1
Import	20,1	2,9	14,5
Saldo	40,4	66	78,6
Rossiya Federatsiyasi	180,2	109,3	124,3
Eksport	143,5	66,4	82,2
Import	36,7	42,9	42,1
Saldo	106,8	23,5	40,1
Qozog'iston	75,1	53,9	64,0
Eksport	60,7	35,4	40,1
Import	14,4	18,5	23,9
Saldo	46,3	16,9	16,2
Latviya	30,2	26,2	32,9
Eksport	21,1	21,8	29,9
Import	9,1	4,4	3,0
Saldo	12,0	17,4	26,9
Ukraina	5,4	11,7	15,3
Eksport	2,2	10,6	14,3
Import	3,2	1,1	1,0
Saldo	-1	9,5	13,3



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Koreya Respublikasi	58,4	31,9	31,0
Eksport	12,2	6,5	7,6
Import	46,2	25,4	23,4
Saldo	-34	-18,9	-15,8
Qirg'iz Respublikasi	4,8	4,8	10,0
Eksport	3,1	2,5	5,9
Import	1,7	2,3	4,1
Saldo	1,4	0,2	1,8
Afg'oniston	0,7	3,9	4,4
Eksport	0,7	3,9	4,4
Import	-	-	-
Saldo	0,7	3,9	4,4
Iroq	3,4	4,1	3,9
Eksport	3,4	4,1	3,9
Import	-	-	-
Saldo	3,4	4,1	3,9
Tojikiston	3,1	7,5	3,3
Eksport	3,1	7,5	3,3
Import	-	-	-
Saldo	3,1	7,5	3,3
Iron	6,0	2,7	6,7
Eksport	0,2	0,1	2,7
Import	5,8	2,6	4
Saldo	-5,6	-2,5	-1,3
Litva	3,4	1,7	14,2
Eksport	0	0	2,2
Import	3,4	1,7	12
Saldo	-3,4	-1,7	-9,8



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Fransiya	1,3	1,1	2,9
Eksport	0,1	0,8	1,7
Import	1,2	0,3	1,2
Saldo	-1,1	0,5	0,5
Gruziya	0,4	1,7	1,4
Eksport	0,4	1,7	1,4
Import	-	-	-
Saldo	0,4	1,7	1,4
Pokiston	0,1	3	1,6
Eksport	0,1	3	1,4
Import	-	-	0,2
Saldo	0,1	3	1,2
Germaniya	4,7	2,5	11,1
Eksport	1	0,4	0,8
Import	3,7	2,1	10,3
Saldo	-2,7	-1,7	-9,5
Turkmaniston	4,1	3,3	4,4
Eksport	0,5	0,7	0,8
Import	3,6	2,6	3,6
Saldo	-3,1	-1,9	-2,8
Ozarbajjon	0,6	0,3	0,8
Eksport	0,6	0,2	0,6
Import	0	0,1	0,2
Saldo	0,6	0,1	0,4
ASQH	1,3	1,4	1,2
Eksport	0,1	0,6	0,6
Import	1,2	0,8	0,6
Saldo	-1,1	-0,2	0

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 33,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 1,8 % ga kamaygan.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 33,9 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 219 tani tashkil etib, ular tomonidan 418,6 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (66,6 %), sanoat tovarlari (12,4 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (13,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	418 602,5	115,4	100,0	147 457,9	119,2	100,0	271 144,6	113,5	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21 289,2	99,7	5,1	8 262,1	82,0	5,6	13 027,1	115,6	4,8
Ichimliklar va tamaki	24,7	46,7	0,0	24,7	46,7	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	57 556,7	127,8	13,7	4 422,9	166,9	3,0	53 133,8	125,4	19,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	66,4	0,3	738,1	186,0	0,5	462,9	32,8	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	278 972,0	111,4	66,6	121 561,8	123,7	82,4	157 410,2	103,5	58,1
Sanoat tovarlari	52 026,9	131,8	12,4	9 678,1	99,3	6,6	42 348,8	142,5	15,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	4 194,2	757,6	1,0	15,4	-	-	4 178,8	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	789,7	369,7	0,2	636,2	358,6	0,4	153,5	424,0	0,1
Xizmatlar	2 548,1	100,5	0,6	2 118,6	113,0	1,4	429,5	65,1	0,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda noziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, noziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlari o'sish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,9	5,9	5,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,4	12,4	13,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,5	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,4	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68,9	69,0	66,6
Sanoat tovarlari	10,9	10,9	12,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,2	0,2	1,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,1	0,1	0,2
Xizmatlar	0,9	0,7	0,6



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	17 030,3	92,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4 030,6	142,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	161,9	813,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	61,9	212,7
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,2	32,4
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,7	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	26,8	50,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	37 839,6	111,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	14 390,4	186,4
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	180,3	93,1
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	5146,4	164,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	66,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	119,6	927,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	278 631,0	111,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	207,1	211,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	-
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6,1	-
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	7,9	-



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI


Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	45 796,2	129,6
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	26,3	11,9
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	6 169,9	158,8
Teri, boshqa boshqa bo'lmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar	34,5	9,1 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	0,4	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	4 181,7	-
Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12,1	118,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	95,9	188,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	663,2	792,4
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	29,1	37,1
Santexnika, isitish va yoritish uskunolari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan	1,5	-
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	712,4	102,0
Transport xizmatlari	1 451,6	137,0
Safarlar (turizm)	384,1	101,7
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-dekabridagi 49,8 % dan

2021- yilning yanvar-dekabrda 35,2 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 64,8 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 25,8 % i), Turkiya (22,2 %), Rossiya Federatsiyasi (19,6 %), Qozog'iston (9,6 %), Latviya (7,1 %), Ukraina (3,4 %) va Koreya Respublikasi (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,5 foizni tashkil etmoqda.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-dekabr, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Turkiyaning ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 39 davlatdan 45 davlatga ko'paydi.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI
(2021- yil yanvar-dekabr, ming AQSh dollari)

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	120274,6	108059,8	108,7	89,8	1	1
Turkiya	68899,4	93058,3	114,0	135,1	2	2
Rossiya	66377,0	82163,4	46,2	123,8	3	3
Qozog'iston	35401,2	40062,0	58,3	113,2	4	4
Latviya	21819,7	29883,1	103,5	137,0	5	5
Ukraina	10571,5	14300,3	483,5	135,3	6	6
Koreya Respublikasi	6461,3	7634,6	53,0	118,2	8	7
Qirg'iz Respublikasi	2541,5	5927,3	80,8	233,2	13	8
Afg'oniston	3915,8	4378,3	568,7	111,8	10	9
Iroq	4082,8	3891,4	119,0	95,3	9	10
Tojikiston	7472,2	3323,3	243,3	44,5	7	11
Iron	99,7	2690,9	52,3	2699,3	30	12
Litva	23,8	2163,7	492,2	9099,9	38	13
Franciya	762,0	1658,6	732,1	217,7	17	14
Gruziya	1748,2	1433,9	389,4	82,0	14	15
Pokiston	3024,3	1404,6	5819,8	46,4	11	16
Germaniya	428,1	818,0	44,6	191,1	20	18
Turkmaniston	698,2	814,2	138,0	116,6	18	19
Ozarbayjon	205,5	622,7	34,2	303,0	23	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.




RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr, ming AQSh dollari)

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Qozog'iston	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	120 274,6	108 059,8	68899,4	93058,3	66377,0	82163,4	35401,2	40062,0
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1810,5	1647,3	584,6	1085,4	884,4	732,2	8 975,6	7185,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	52,9	26,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	31282,3	37457,1	1470,2	8312,9	2 420,2	2 609,5	70,6	1 790,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	43,9	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	71091,9	45109,3	59208,5	71885,9	53610,7	71553,2	25863,9	30320,4
Sanoat tovarlari	15656,4	23690,2	7209,8	11772,6	8428,2	6 060,5	5,9	20,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	400,4	-	-	3,3	3,0	12,1
Turli xil tayyor buyumlar	-	153,5	0,3	-	-	5,0	51,1	92,6
Xizmatlar	433,5	2,4	27,3	1,5	1033,6	1 199,6	334,3	613,7

Xizmatlar eksporti hajmi 2 548,1 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (15,0 %), transport (57,0 %) hamda moliyaviy xizmatlar (28,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 7 858,1 ming AQSh dollari qiymatli 36 982,8 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 2 764,7 ming AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 74,0 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 4 341,9 ming AQSh dollariga teng 25 183,2 tonna sabzavot, shuningdek, 854,4 ming AQSh dollari qiymatidagi 1 154,9 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 55,3 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-dekabr , ming AQSh dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (87,5 %), Rossiya Federatsiyasi (9,3 %) va Italiya (2,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-dekabr)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	36 701,7	8 718,6	82,1	35 905,9	6 878,7	87,5

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	1 942,2	884,4	8,3	978,7	732,2	9,3
Italiya	-	-	-	52,6	188,8	2,4
Xitoy Xalq Respublikasi	501,2	497,4	4,7	-	-	-

*- qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI








To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 45 796,2 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 29,6 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (90,6 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (6,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 12 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 8 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(*yanvar-dekabr, ming AQSh dollari*)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Paxtadan yigirilgan ip	26 714,2	34 327,6	42 832,0
 Ipak va ipak mahsulotlari	2 404,6	1 791,8	3 286,0
 Naqshli mato	-	-	-
 Gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari	-	-	280,5
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	-	185,8
 Paxta mahsulotlari	9,0	125,6	168,6
 Boshqa tayyorlangan to'qimachilik, lattalar	0,0	28,5	509,2

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (24 267,2 ming AQSh dollari – 51,3 %), Rossiya Federatsiyasi (6 014,1 ming AQSh dollari – 12,7 %) va Turkiya (11 772,6 ming AQSh dollari – 24,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
(*yanvar-dekabr, ming AQSh dollari*)





DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, ming AQSh dollari)

Davlatlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	15527,4	16448,0	24267,2
Rossiya Federatsiyasi	6885,8	8408,1	6014,1
Turkiya	3981,7	7199,3	11772,6
Pokiston	43,3	2966,5	1393,3
Qirg'iz Respublikasi		68,7	1766,0
BAA	1445,9		90,3
Iron	190,4		746,6
Hindiston	521,5	136,0	113,1
Tojikiston	214,0	864,1	649,9


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
(2021- yil yanvar-dekabr)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 238,6 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 135,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (42,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,4 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (12,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,3 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 135,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 11,8 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	238 579,1	135,3	100,0	75 596,6	110,0	100,0	162 982,5	151,5	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29 606,5	107,5	12,4	23 256,9	106,0	30,8	6 349,6	113,3	3,9
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16 910,6	108,5	7,1	16 834,6	110,1	22,3	76,0	26,5	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	16 825,8	144,2	7,1	9 241,9	147,1	12,2	7 583,9	140,9	4,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7 175,3	162,7	3,0	7 175,3	162,7	9,5	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	29 445,6	115,3	12,3	3 372,7	91,7	4,5	26 072,9	119,2	16,0
Sanoat tovarlari	16 840,6	108,8	7,1	9 510,6	92,2	12,6	7 330,0	142,0	4,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	102 462,1	175,0	42,9	2 328,4	40,7	3,1	100 133,7	189,5	61,4
Turli xil tayyor buyumlar	7 541,4	75,0	3,2	324,2	46,4	0,4	7 217,2	77,1	4,4
Xizmatlar	11 771,2	157,8	4,9	3 552,0	859,2	4,7	8 219,2	116,7	5,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik



hayvonlar importining ulushi 5,9 % dan 12,4 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 49,9 % dan 42,9 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 11,5 % dan 3,2 % ga tashkil etdi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,9	15,6	12,4
Ichimliklar va tamaki			-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,3	8,8	7,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,9	6,6	7,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,2	2,5	3,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,4	14,4	12,3
Sanoat tovarlari	5,1	8,8	7,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	49,9	33,2	42,9
Turli xil tayyor buyumlar	11,5	5,7	3,2
Xizmatlar	3,8	4,2	4,9

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 3,8 % dan 4,9 % ga ko'paydi.



**ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2021- yil yanvar-dekabr, ming AQSH. doll.)**



**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 239,4	104,6
Tirik hayvonlar	8 011,7	136,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	109,4	77,0
Sabzavotlar va mevalar	493,6	263,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	526,0	236,9
Shakar mahsulotlari va asal	24,1	1,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	886,7	289,9
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	361,1	198,1
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 850,2	129,1
Hayvonlar uchun ozuqa	360,3	12,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Probka va yog'och-taxtalar	14 708,7	95,5
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	151,3	
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	2 017,2	9,4 b.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	28,1	38,2
To'qimachilik tolalari	0,1	0,2
Qog'oz va makulatura	5,2	53,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	13 444,5	133,8
Ko'mir, koks va briketlar	3 367,6	228,5
Tabiiy yoki sun'iy gaz	13,7	9,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	7 166,2	162,5
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	9,1	-
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 046,5	95,7
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	106,0	99,5
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	19 178,6	120,7
Organik kimyo moddalari	6 283,9	102,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	1 657,7	155,1
Noorganik kimyo moddalari	772,4	118,3
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	40,2	33,6
O'g'itlar	360,3	93,8
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 534,0	46,1
Rezina buyumlari	498,4	102,7
Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar	1 226,5	120,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	183,5	210,9
Ruda metall bo'lmagan mineral mahsulotlar.	2 227,9	91,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	11 127,2	138,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	41,5	42,4
Rangli metallar	1,5	68,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI


Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	18 140,8	50,7 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	41 152,7	192,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	20 208,0	145,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	3 253,1	76,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	7 008,1	60,0
Metallarni qayta ishlash mashinalari	345,6	65,0
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	62,2	19,7
Avtomobililar	8 600,7	144,3
Boshqa transport vositalari	3 690,9	17,1 b
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	686,5	79,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlar	2 939,8	149,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3 665,2	51,3
Poyabzal	2,1	350,0
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	34,2	6,6 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	205,1	515,3
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	8,4	23,9
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	6 853,0	116,8
Transport xizmatlari	502,1	451,9
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	3 749,1	488,6
Moliyaviy xizmatlar	667,0	97,4

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (51,3 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (79,2 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog'och-taxtalar (95,5 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 18,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (17,6 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 46 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-dekabr)

Davlat nomi	ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	35619,3	44649,7	53,2	125,4	2	1
Rossiya Federatsiyasi	42858,5	42052,0	116,9	98,1	1	2
Qozog'iston	18493,2	23923,9	128,7	129,4	4	3
Koreya Respublikasi	25428,9	23407,8	55,1	92,1	3	4
Turkiya	2857,3	14457,5	14,2	506,0	7	5
Litva	1717,7	12014,7	50,9	699,4	16	6
Germaniya	2131,9	10289,7	58,0	482,7	14	7
Shvetsiya	552,0	9212,5	207,7	1668,9	23	8
Vyetnam	12121,7	7186,7	81,2	59,3	5	9
Chexiya Respublikasi	2431,1	6868,5	228,5	282,5	11	10
BAA	636,1	6295,0	23,7	989,6	27	11
Niderlandiya	949,8	5478,1	71,4	576,8	22	12
Qirg'iz Respublikasi	2317,0	4146,6	134,5	179,0	12	13
Eron	2594,2	4037,0	45,0	155,6	10	14
Turkmaniston	2610,5	3580,5	72,5	137,2	9	15
Latviya	4439,5	3026,8	48,9	68,2	6	16
Gonkong	590,9	1857,5	27,3	314,4	28	17
Polsha	2070,9	1651,5	92,0	79,7	15	18
Avstriya	2148,8	1386,9	269,7	64,5	13	19
Ruminiya	2713,5	1353,3	119,8	49,9	8	20

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga to var va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Litva va Germaniya Respublikasi) jami importning 71,6 % ulushini tashkil qildi, bu 170,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-dekabr, % da)**





Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan

katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 11 771,2 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 0,7 % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (58,2 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlar va (31,8 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (5,7 %) va transport xizmatlari (4,3 %) tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06